

**«O'zagrosug'urta» AJ
Boshqaruvining
2021 yil «22» oktyabrdagi
162-sonli bo'rug'iga
2-Illova**

**“O'zagrosug'urta” AJning Boshqaruvi, filiallarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni
baholash
USLUBIYOTI**

1 bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur uslubiyot “O'zagrosug'urta” AJning Boshqaruvi, filiallarida (keyingi o'rinlarda - Kompaniya) yuklangan vazifa va majburiyatlarni bajarishda yuzaga kelib chiqadigan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash bo'yicha qoidalarni belgilab beradi hamda Kompaniyada korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashga yagona yondashuvni shakllantirishga qaratilgan.

2. Quyidagilar Kompaniyadagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashning maqsadi hisoblanadi:

Kompaniya faoliyatini kompleks tahlil qilish orqali korrupsiya xavf-xatariga eng ko'p moyil bo'lgan funktsiya va lavozimlarini belgilash;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha samarali oldini olish choralarni ishlab chiqish.

3. Kompaniyadagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash quyidagilarni ishlab chiqilishini nazarda tutadi:

Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi;

Kompaniyada korrupsiyaga qarshi kurashish choralarni, mas'ul shaxslarni, amalga oshirish mexanizmi va muddatlarini o'z ichiga belgilab olgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur.

4. Kompaniyadagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash har yili yoki quyidagi holatlar yuzaga kelganda amalga oshiriladi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni birlamchi baholash zaruriyati;

O'zbekiston Respublikasi qonunchilik talablarining o'zgarishi;

funktsiya yoki tartib-taomilning amalga oshirilishiga sezilarli ravishda ta'sir ko'rsatuvchi Kompaniyaning ichki hujjatlari o'zgarishi;

Kompaniya tuzilmasining, funktsiyalarini amalga oshirishida o'ziga xos jihatlarning o'zgarishi, yangi funktsiyalarning yuklanishi;

Kompaniya funktsiyalarining korrupsiyaviy xavf-xatar darajasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa shart-sharoitlarning kelib chiqishi.

5. Ushbu Uslubiyotda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

qoldiq xavf-xatar – korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirishga qaratilgan choralarni qabul kilingandan so'ng qoluvchi xavf-xatar;

korrupsiyaviy xavf-xatar – xodimlar yoki uchinchi shaxslar tomonidan Kompaniya nomidan o'z manfaatini ko'zlab korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish xavfi;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash – Kompaniya tomonidan amalga oshiriladigan funktsiyalarni tahlil qilish, ularning korrupsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasini aniqlash, shuningdek funktsiyalar doirasida amalga oshiriladigan tegishli

tartib-taomillar uchun o'ziga xos va qoldiq korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash faoliyati;

korruptsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasi – Kompaniyadagi korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalari bo'yicha tuziladigan va Kompaniya funktsiyalari va tartib-taomillarining umumiy ro'yxati, tegishli funktsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq ehtimoliy korruptsiyaviy xavf-xatar (sxemalar) tasnifi, o'ziga xos va qoldiq korruptsiyaviy xavf-xatarlar darajasi, ularni minimallashtirish choralari va aniqlangan korruptsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan xodimlar lavozimlarini o'z ichiga oluvchi birlashgan hujjat;

korruptsiyaviy xarakterlar – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlarini yo'lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo'lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog'oz, boshqa ko'rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy harakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlarni undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o'z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

korruptsiyaga oid huquqbuzarlik – korruptsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

tartib-taomil – Kompaniya funktsiyalarini amalga oshirish doirasidagi xodimlar, bo'linmalar tomonidan bajariladigan yoki bitta natijaga qaratilgan, yohud ma'lum bir funktsiyaning ajralmas elementi hisoblangan, alomatlar bo'yicha bir guruhga birlashtirish mumkin bo'lgan harakatlar yig'indisi;

funktsiya – bir nechta tartib-taomilni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan Kompaniyaning faoliyat yo'nalishlaridan biri;

ekspert fikri – aniq fakt yoki hodisa bo'yicha xodim yoki bo'linmaning sub'ektiv qarashi yoki fikriga asoslangan qarori.

o'ziga xos xavf-xatar – Kompaniya faoliyati va amalga oshirilayotgan funktsiyalari spetsifikasidan kelib chiqadigan xavf-xatari;

filialda korruptsiyaviy xavf-xatarlari xaritasi – Kompaniyaning filiallarida korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalari bo'yicha tuziladigan, tegishli funktsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq ehtimoliy korruptsiyaviy xavf-xatar (sxemalar) tasnifi, o'ziga xos va qoldiq korruptsiyaviy xavf-xatarlar darajasi, ularni minimallashtirish choralari va aniqlangan korruptsiyaviy xatarni minimallashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan xodimlar lavozimlarini o'z ichiga oluvchi hujjat.

6. Kompaniyadagi korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Komplaens nazorat departamenti tomonidan Kompaniya Boshqaruvi raisi topshirig'i asosida amalga oshiriladi. Kompaniya Boshqaruvi raisi topshirig'ida baholashni o'tkazish aniq muddatlari ko'rsatiladi.

7. Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholashda Komplaens nazorat departamenti quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullarni jalb qilgan holda Kompaniyada xavf-xatarlarni baholash jarayonini tashkillashtiradi;

Kompaniyada korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayoni ustidan umumiy nazoratni amalga oshiradi;

Kompaniya Boshqaruvi, filiallarga mazkur Uslubiyotda ko'zda tutilgan tartibga rioya qilish bo'yicha maslahatlar beradi;

Kompaniya Boshqaruvining korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini tuzadi va Kompaniyaning korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishiga mas'ul rahbar o'rinbosari bilan kelishadi;

Boshqaruv, filiallarning korrupsiyaviy xavf-xatarlari xaritasini Kompaniyaning korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasiga umumlashtiradi;

Kompaniya Boshqaruvi raisi va tegishli filial direktorlariga xavf-xatarlarni baholash natijalari va korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasini taqdim etadi;

tasdiqlangan xavf-xatarlar xaritasi asosida filiallar tomonidan ishlab chiqilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturlar loyihalarini ko'rib chiqadi va ularni qabul qilish maqsadga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi;

Kompaniya Boshqaruvning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturini ishlab chiqadi va Kompaniyaning korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishiga mas'ul rahbar o'rinbosari bilan kelishadi;

Kompaniya Boshqaruvi, filiallari korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturi asosida Kompaniyaning korrupsiyaga qarshi kurashish dasturini ishlab chiqadi;

Kompaniyada korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarini muvofiqlashtiradi va ularni nazorat qiladi;

Komplaens nazorat departamenti zarur hollarda Kompaniyadagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullardan qo'shimcha axborot va hujjatlarni talab qilib oladi.

ushbu Uslubiyotda ko'zda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

8. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullar quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

tegishli filiallarda korrupsiyaviy xavf-xatarlar baholanishini tashkil qiladi va o'tkazadi;

tegishli filiallarda korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini tuzadi va ushbu Uslubiyotda ko'zda tutilgan tartibda kelishilishini ta'minlaydi;

tegishli filiallarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturlarini ishlab chiqadi va ushbu Uslubiyotda ko'zda tutilgan tartibda kelishilishini ta'minlaydi;

tegishli filiallarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarini amalga oshirishni muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi;

ushbu Uslubiyotida ko'zda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

2 bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash

9. Kompaniyada korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash jarayoni Kompaniya Boshqaruvi raisining tegishli buyrug'i va unda ko'rsatilgan muddatlar asosida amalga oshiriladi.

10. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash funktsiyalarning korrupsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasini dastlabki baholash va tegishli funktsiyalar doirasida Kompaniya xodimlari tomonidan amalga oshiriladigan ayrim tartib-taomillarning korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholashni o'z ichiga oladi.

11. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash, pastdan tepaga mazkur bobning 12-21 bandlarida ko'rsatilgan tartib va ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

12. Komplaens nazorat departamenti ushbu Uslubiyotiga 1-ilovada keltirilgan Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini ishlab chiqish bo'yicha Kompaniyaning Boshqaruvi, filiallariga ko'rsatma yuborilishini ta'minlaydi.

13. Kompaniyaning Boshqaruvi Departamentlarining Korruptsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi tegishli Departamentlar tomonidan ishlab chiqilib, Komplaens nazorat departamentiga Kompaniya boshqaruvi uchun yagona Korruptsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini tuzish maqsadida kiritiladi. Kompaniya Boshqaruvi Departamentlarining Korruptsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi Komplaens-nazorat tomonidan Kompaniyaning korruptsiyaga qarshi kurashish yunalishiga mas'ul rahbar o'rinbosari bilan kelishiladi.

14. Kompaniyaning filiallarida Korruptsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullari tomonidan ishlab chiqiladi va keyin Kompaniya Komplaens nazorat departamentiga ko'rib chiqish uchun kiritiladi.

15. Kompaniya Boshqaruvi, filiallari tomonidan ishlab chiqilgan Korruptsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga oid savollar yuzaga kelgan taqdirda, Komplaens nazorat departamenti xodimlari tegishli tarkibiy bo'linmaga izoh berish yoki xaritaga tuzatish kiritish uchun so'rov yuboradi. Bunda, so'rovga javob so'rov olingan kundan boshlab besh ish kunidan oshmagan muddatda yuborilishi lozim.

16. Kompaniya Boshqaruvi, filiallarning korruptsiyaviy xavf-xatarlar xaritalari asosida Komplaens nazorat departamenti Kompaniyaning korruptsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasini ishlab chiqadi.

17. Korruptsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasi Kompaniya Komplaens nazorat departamenti taqdimnomasiga asosan Kompaniya Boshqaruvi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

18. Qoldik korruptsiyaviy xavf-xatarning yuqori darajasi bilan ifodalanadigan tartib-taomillar uchun Komplaens nazorat departamenti ushbu Uslubiyotning 2-ilovasiga muvofiq korruptsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxatini ishlab chiqadi.

19. Kompaniyaning korruptsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxati Komplaens nazorat departamenti va korruptsiyaga qarshi kurashish uchun mas'ullar taqdimnomasiga asosan Kompaniya Boshqaruvi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

20. Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullar tomonidan tasdiqlangan Korruptsiyaviy xavf-xatarlarning xaritasida belgilangan chora-tadbirlarga asosan filialda Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturi ushbu Uslubiyotning 3-ilovasiga muvofiq Korruptsiyaviy xavf-xatarlarning xaritasi tasdiqlangan sanadan o'n ish kuni ichida ishlab chiqilib tasdiqlanadi.

Kompaniya filiallarining Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturi Komplaens-nazorat tuzilmasi bilan kelishilgandan so'ng tegishli filial direktori tomonidan tasdiqlanadi.

21. Kompaniyaning Korruptsiyaga qarshi kurashish dasturi Kompaniya Boshqaruvi departamentlarining korruptsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarini inobatga olgan holda Komplaens nazorat departamenti tomonidan ishlab chiqiladi hamda Kompaniya Boshqaruvi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

3-bob. Korruptsiyaviy xavf-xatarlarning keyingi (har yillik) baholanishi

22. Kompaniyada korruptsiyaviy xavf-xatarlarning keyingi baholanishi doimiy ravishda, bir yilda kamida bir marta, qoida tariqasida yil boshida Kompaniya rahbarining tegishli buyrug'i asosida o'tkaziladi.

23. Yillik korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ushbu uslubiyotning 2-bobida ko'rsatilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash tartibida amalga oshiriladi.

24. Har yillik korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash boshlanishidan oldin Komplaens nazorat departamenti Kompaniyaning Boshqaruvi departament mosh menejerlari, filial direktorlariga oldingi baholash davriga nisbatan qonunchilikda yoki ichki idoraviy hujjatlarga kiritilgan o'zgarishlarni aniqlash maqsadida ushbu Uslubiyotga 4-ilovaga mos shaklda So'rovnomaga yuboradi.

25. Komplaens nazorat departamenti Kompaniya Boshqaruvi departament bosh menejerlari, filial direktorlari tomonidan to'ldirilgan So'rovnomalarni yig'adi, tahlil qiladi.

4-bob. Kompaniyada amalga oshiriladigan funktsiyalar va tartib-taomillarning korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholash tartibi

26. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash tashqi va ichki axborot manbalaridagi ma'lumotlar tahlili asosida amalga oshiriladi, jumladan:

Kompaniya funktsiyalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar va Kompaniyaning ichki hujjatlari (tarkibiy bo'linmalar, xodimlarning lavozim yo'riqnomalari to'g'risidagi nizomlar va h.k.);

ichki tekshiruv materiallari, shu bilan birga xizmat tekshiruvlari materiallari;

ichki audit va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha monitoring natijalari;

Kompaniyaning xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy harakatlarga oid murojaatlar;

Kompaniya faoliyatidagi huquqbuzarliklarga oid statistik ma'lumotlar;

korrupsiyaviy harakatlar to'g'risida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallariga kelib tushgan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari;

Kompaniya xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy harakatlar yoki odob-ahloq qoidalariga rioya qilmaslik to'g'risida OAVdagi ma'lumotlar;

ijtimoiy tarmoqlarda qoldirilgan izohlar;

huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan taqdim etilgan materiallar, jumladan jinoyat ishlariga doir axborotlar va boshqalar.

27. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayonida Kompaniyaning har bir funktsiyasi va tartib-taomili bo'yicha korrupsiyaviy harakatlarni sodir etish imkoniyatlari borligi bo'yicha tahlil qilish lozim.

28. Har bir funktsiya quyidagi shkala bo'yicha baholanadi:

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan funktsiya;

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng kam moyil bo'lgan funktsiya.

29. O'rganilayotgan funktsiya doirasida amalga oshirilayotgan tartib-taomillarning o'ziga xos xavf-xatarini baholash quyidagi mezonlarga ko'ra amalga oshiriladi:

o'ziga xos yuqori xavf-xatar korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan funktsiyalar doirasida amalga oshiriladigan tartib-taomillarga beriladi;

o'ziga xos o'rta xavf-xatar korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng kam moyil bo'lgan funktsiyalar doirasida amalga oshiriladigan tartib-taomillarga beriladi;

o'ziga xos past xavf-xatar xavf-xatarlar ko'zda tutilmagan va Kompaniyaning Komplaens nazorat departamentining asosli xulosasi asosida istisno tariqasida qo'llanilishi mumkin.

30. Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholash xavf-xatarli hodisani amalga oshirishning ehtimoli (mazkur Uslubiyotning 5-ilovasi 5.1 jadvaldagi mezonlarga qarang) va korrupsiyaviy xavf-xatarning oqibat darajasi (mazkur Uslubiyotning 5-ilovasi 5.2 jadvalidagi mezonlarga qarang)ni hisobga olgan holda xavf-xatarlar ahamiyatlilik shaklidan foydalanib amalga oshiriladi (mazkur Uslubiyoti 5-ilovasidagi 5.1 rasm).

5 bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarning qoldiq darajasini minimallashtirish choralari

30. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlarini belgilashda:

har bir chora Kompaniya xodimlari uning maqsadlari, pirovard natijasi va ma'lum bir korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish bilan aloqasini tushunishi uchun aniq va ravshan ifoda etilishi;

har bir chora uchun uni amalga oshirish muddati yoki davriyligi belgilanishi, uni amalga oshirish uchun mas'ul shaxslar, amalga oshirilishini monitoring qilish va samaradorligini baholash mexanizmlari aniqlab olinishi zarur.

31. Kompaniyaning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga kiritilgan, aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlari Kompaniyaning Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlariga ham kiritiladi (mazkur Uslubiyotning 6-ilovasi).

32. Kompaniyadagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish ustidan nazorat Komplaens nazorat departamenti tomonidan amalga oshiriladi.

6 bob. Yakuniy qoidalar

33. Zarurat bo'lganda, Kompaniyaning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi va korrupsiyaga qarshi kurashish dasturiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bilan bog'liq masalalar bo'yicha Komplaens nazorat departamenti tomonidan Kompaniya Boshqaruvi raisiga takliflar kiritiladi.